



UDK: 811.111 (11)

Jamila ERMETOVA,
Urganch davlat universiteti dotsenti, f.f.n
E-mail: jamilaismailovnae@gmail.com

O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.d. Z.Teshaboyeva taqrizi asosida

AVTOMOBILSOZLIKKA OID MATNLARDA TERMINOLOGIYANING INGLIZ TILIGA TARJIMASI MUAMMOLARI

Annotation

Ushbu maqolada ilmiy-texnik matnlarda avtomobilsozlik sohasiga oid terminologiyani tarjima qilishning leksikografik muammolari va ularni hal etish yo'llarini o'rganishdan iborat; shungdek terminlarni tadqiq etishda avtomobil atamaları tizimini shakllanishi davriy tarixining muhimligi yoritilgan.

Key words: transport terminologiyasi, terminlar sinonimiyasi, semantik konvergeniya, kalkalash, mashinasozlik, mashina va mexanizmlar, avtomobilning texnik tuzilishi.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ТЕРМИНОЛОГИИ АВТОМОБИЛЬНЫХ ТЕКСТОВ НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

Целью данной статьи является исследование лексикографических проблем перевода автомобильной терминологии в научно-технических текстах и путей их решения. При изучении таких терминов подчеркивается значение периодической истории формирования системы автомобильных терминов.

Ключевые слова: транспортная терминология, синонимия терминов, семантическая конвергенция, калькирование, машиностроение, машины и механизмы, техническое устройство автомобиля.

PROBLEMS OF TRANSLATION OF TEXTS OF AUTOMOTIVE TERMINOLOGY INTO ENGLISH

Annotatsiya

The purpose of this article is to study the lexicographic problems of translating automotive terminology in scientific and technical texts and ways to solve them. When studying such terms, the importance of the periodic history of the formation of the system of automotive terms is emphasized.

Key words: transport terminology, synonymy of terms, semantic convergence, coinage, mechanical engineering, machines and mechanisms, technical device of an automobile.

Kirish. Rivojlanayotgan dunyo bilan odamlar o'zaro yaqin harakatda va ta'sirdadir. Atrofdagi borliqni inson faol ravishda o'zgartiradi. Til inson bilan o'zi o'rganayotgan dunyo o'rtasida vositachi bo'lib, u "har bir etnik-madaniy jamoaga xos bo'lgan dunyoning lingvistik manzarasini yaratish uchun xotirada ko'plab bilimlarni tartibga solish va tizimlashtirish uchun imkoniyatlar yaratadi" [3]

XX-XXI asrlarda sanoatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan ulkan global o'zgarishlar jarayoni faol davom etmoqda. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mashinasozlikning yetakchi tarmoqlaridan biri avtomobilsozlik hisoblanadi. Ushbu sohaning terminologiyasi hozirgi vaziyatda muhim ahamiyatga ega.

Avtomobilsozlik sanoati, avtomobilning texnik tuzilishi, shuningdek, kundalik hayotda ham, shaxsiy foydalanish uchun ham, ishlab chiqarishda ham qo'llaniladigan turli xil mashina va mexanizmlar bilan bog'liq atamalar hayotimizda doimiy ravishda uchrab turadi. Nafaqat mutaxassislar, balki shaxsiy avtomobillari yoki qishloq xo'jaligi texnikasi bo'lgan oddiy odamlar uchun ham ushbu atamalarni bilish bugungi kunda zarur bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda shiddat bilan rivojlanayotgan avtomobil sanoati bo'lgan «UzAuto Motors» AJ ishlab chiqarish maydonlari Asaka (Andijon viloyati) va Pitnak (Xorazm viloyati) shaharlarida joylashgan va turli rusumdagi avtomobillarni ishlab chiqarmoqda. Bunlardan tashqari, yo'llarimizda Xitoy va boshqa xorijiy ishlab chiqaruvchilarning avtomobillarni, qishloq xo'jaligi texnikalarini ham ko'plab kuzatamiz.

Ularning texnik hujjatlari, avtomobillar, boshqa mexanik va elektr texnika uskunalarini ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash bo'yicha turli tavsiyalari ingliz tilida yozilganligi ajablanarli hol emas.

Soha mutaxassislari bunday avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatishda ingliz tili mutaxassislariga bir necha marotaba murojaat qilishlariga to'g'ri kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Afsuski, hozirgi vaqtda ingliz tilidagi texnik atamalarni o'zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan. Bunday atamalarining maxsus lug'atlari va glossariylari yetarli emas, avtomashinalar va qishloq xo'jaligi texnikalariga texnik xizmat ko'rsatishga bog'liq tarjima qilingan texnik hujjatlarda juda jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin bo'lgan aчинаrli xatolar va noaniqliklar mavjud.

Yuqoridagilar sabab ushbu maqolamiz oldiga avtomobilsozlik sohasiga oid matnlarda ilmiy-texnik terminologiyani tarjima qilishning asosiy muammolari va ularni hal etish yo'llarini o'rganishni maqsadi etganmiz.

Transport terminologiyasini o'rganish yangi mavzu emas, leksikaning qayd etilgan bu qatlami alohida mualliflar tomonidan tadqiqot obyekti bo'lgan; bu muammolarni ilmiy jihatdan yechishni maqsad qilgan olimlarimiz ham yo'q emas. Masalan: Ermetova J., Xojayev O. [2019] "Avtomobilsozlikka oid atamalarining o'zbekcha-inglizcha va inglizcha-o'zbekcha izohli lug'ati"ni tuzgan; Abdullayeva Sh. [2022] termin va terminshunoslikni lingvistik masala sifatida organgan; Abdullayeva F.B. [2023] texnik terminologiyaning nasariy va amaliy masalarini tahlilga tortgan va hokazo.

Rus olimlari Voskresenskaya [1980] ingliz texnik (avtomobil) atamalarining semantik tuzilishini o'rgangan. N.P. Tomasevichning [1984] tadqiqoti avtomobilsozlik sanoatining ingliz subtilining terminologik lug'ati va uning boshqa leksik qatlamlar bilan o'zaro ta'siriga bag'ishlangan. V.G. Zaxarova [1985] rus va belarus tillarida avtomobilsozlik sanoati terminologiyasini, ya'ni "jarayonlar, harakat usullari" toifasi atamalarini shakllantirish tizimini ko'rib chiqdi. L.I. Lesnichaya [1998], zamonaviy frantsuz tilining avtomobil sanoati terminologiyasi materialida, qo'shma atamalarining sintaktik tuzilmalarining semantikasini o'rgangan. Yu.A. Chuntomova [2004] ingliz transport terminologiyasini o'rgangan. I.E. Korotaeva [2004] "Transport" leksik-semantik maydonini ingliz tilining amerika variantida tahlil qildi. I.N. Pozdnysheva [2007] ingliz, frantsuz va rus tillarida avtomobil terminologiyasi tizimlarining qiyosiy tahlilini o'tkazdi.

– **Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumki, avtomobil leksikasi XIX-XX asr boshlarida texnikaning kuchli rivojlanish va umumiy sanoatlashtirish davrida paydo bo'lgan. "Avtomobil" atamasi ingliz tiliga birinchi marta 1883 yilda frantsuz tilidan sifatdosh sifatida olingan. Faqat 1890 yilga kelib, "o'zi harakatlanadigan transport vositasi" degan ma'noni anglatadigan nom paydo bo'ldi.

Shu ta'kidlash zarurki, avtomobil atamalarini tizimining shakllanish tarixini o'rganibgina, aniq natijaga erishish maqsadga muvofiq va bu davrini esa to'rt davrga bo'lish mumkin;

Birinchi davr 1889 yilda birinchi avtomobillar paydo bo'lishidan oldin paydo bo'lgan atamalarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda avtomobillarning prototiplarini yaratishga urinishlar bo'lib, asosiy tarkibiy qismlar va agregatlar ixtiro qilindi, bu esa birinchi to'laqonli transport vositalarining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Bu davrda avtomobilning birlamchi asosini tashkil etuvchi komponentlar va agregatlarni bildiruvchi atamalar ustunlik qiladi. Xususan, ushbu davr tushunchalarining yarmidan ko'pi konstruktiv xususiyatlar yoki ichki yonish dvigatelining qismlari va parametrlari bilan bog'liq, masalan, pressing force – bosim kuchi, coil spring – buralgan prujina, odometer – odomet, electric fuel injector yoqilg'i injektor, petrol engine – benzin dvigateli.

Ikkinchi davr (1889-1934) - avtomobil ishlab chiqarishning o'sishi bilan tavsiflangan avtomobilning asosiy tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish davri bo'ldi. Qayd etilishicha, atamalarining yarmidan ko'pi shu davrda shakllantirilgan. Bu shu yillar davomida avtomobil tuzilishi shakllanganligi bilan izohlanadi. Davr oxiriga kelib, konstruktiviyalari zamonaviy avtomobillarga yanada o'xshash bo'lib bordi. Agar birinchi davrda eng ko'p atamalar ichki yonuv dvigateligiga tegishli tushunchalarni anglat, ikkinchi davrda avtomobilning evolyutsiyasini tavsiflovchi tushunchalar ustunlik qiladi: alternating current generator – o'zgaruvchan tok generatori, transmission – transmissiya, sparking plug – o't oldirish uskunasi, drive shaft – uzatish uskunasi va boshqa atamalar paydo bo'ldi. Shu bilan birga, avtomobilning qulaylik darajasi va tashqi ko'rinishi yaxshilana boshlagan. Power-assisted steering – rul boshqaruvini kuchaytirgich, roof railing – reyling (yuk tashish uchun avtomobil tomiga o'rnatiladigan panjara), unitized body – kuzov (avtomobil tana qismi) va boshqa tizimlarni ishlab chiqish bunga olib keldi.

1934 yilda birinchi old g'ildirakli avtomobilning paydo bo'lishi avtomobil rivojlanishining uchinchi davrining boshlanishi edi. 1975 yilda ishlab chiqarilgan avtomobillarda elektronikadan foydalanishning boshlanishini ushbu davrning oxiri deb hisoblash kerak. Aynan shu davrda avtomobil ishlab chiqarishning zamonaviy kontseptsiyasiga asos solingan. Bu davrda wishbone suspension – bog'lanishni to'xtatib turish qurilmasi (XX asrning 30-yillari, Formula-1 sinfining sport avtomobillari), high-pressure fuel injection pump – yuqori

bosimli yonilg'i nasosi, ball joint – sharsimon tirgak va boshqa atamalar paydo bo'ldi.

To'rtinchi davr (1975 yildan 2000 yillargacha) xavfsizlik va qulaylikning ortib borayotgan roli bilan xarakterlanadi [5].

Ammo avtomobil atamalarini tizimining shakllanish beshinchi davrini 2020 yildan, ya'ni, elektomobillarning yangicha rivojlanish davri deb mulohaza yuritishimiz mumkin va bu davrda paydo bo'lgan va paydo bo'layotgan atamalarni alohida mavzu sifatida kelgusi ishimizda yoritishni maqsad qilganimiz.

– Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar "termin – atama" tushunchasini turlicha talqin qilishadi. MM. Glushkoning ta'kidlashicha, "termin yoki atama – bu qat'iy va aniq ta'rifning mavjudligi tufayli aniq semantik chegaralarga ega bo'lgan va shuning uchun tegishli tasniflash tizimida tushunchalarni ifodalash va obyektlarni belgilash uchun so'z yoki iboradir" [5, b. 79]. A.A. Reformatskiy atamalarni "ekspressivlikdan (ifoda) mahrum bo'lgan aniq so'zlar" deb ta'riflaydi [9, b. 204]. S.V. Grinev atamani "maxsus tushunchalarni aniq nomlash uchun qabul qilingan maxsus tilning nominativ maxsus leksik birligi (so'z yoki ibora) sifatida" tavsiflaydi. [6, b. 22]. Tadqiqotda L.S.Baxudarovning atama – bu an'anaviy ravishda maxsus bilim sohasi yoki faoliyat sohasi tushunchasini anglatuvchi so'z (ibora) sifatida tushuniladi deb bergan ta'rifiga asoslanadi [3, b. 6].

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, tilimizga avtomobil sohasiga oid ko'pchilik atamalar ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri, yoki boshqa tillar (rus tili) orqali o'zlashgan. Avtomobil mavzusidagi matnlarini tarjima qilishda to'rtta asosiy muammoga duch kelish mumkin.

1) Terminning sinonimi.

Masalan,

uzatmalar qutisi ingliz tilida gearbox, transmissiya so'zlarini anglatishi mumkin;

pickoff; pickup; sensor; transducer, detecting element, sensing element ingliz tilidan ruscha bitta o'zlashma bilan датчик; ona tilimizda sinonimlar bilan – tanlash; olib ketish; ko'tarish, sensor; converter – o'zgartirgich, aniqlovchi element, sezuvchi element so'zlarini anglatishi mumkin;

2) Atamaning noaniqligi

Misol uchun,

"nut" - gayka, mufta (birlashtiruvchi qurilma);

"pulley" – rolik, g'altak;

"lead (n)" qo'rg'oshin – o'tkazuvchi, ta'minot simi, chiqish (batarya), rezbaning ko'tarilishi, rezbaning izi;

"joint - qo'shma" – qo'shilgan joy, chok;

"strainer" – taranglashtiruvchi moslama, filtr, to'rtli filtr (so'rish shlangining qabul qilish uchida);

"Sensor" – sensor, datchik.

3) Atamalarni tarjima qilish usulini tanlash.

Atamalarni tarjima qilishning eng keng tarqalgan usullari quyidagilardir:

1) Tarjima qilinayotgan tilda original (asl) tildagi atamaning ekvivalentini aniqlash – tarjimaning optimal usuli hisoblanadi. Asl til va tarjima qilinayotgan til keng tarqalgan mamlakatlarda, ular bir xil ilmiy, texnik, yoki ijtimoiy darajaga yetgan yoki o'zlarining qaysidir tarixiy bosqichida bu darajadan o'tgan hollarda ushbu usuldan foydalanish mumkin. Ushbu atamalarining yana bir xususiyati shundaki, odatda turli tillardagi ekvivalent atamalar tarjima paytida ikkala tilda ham allaqachon mavjud edi (heater – isitgich, flywheel – volan).

2) Tarjima qilinayotgan tildagi yangi atama o'sha tildagi mavjud so'z yoki iboraga asl tildagi atama ta'sirida yangi ma'no berish orqali yaratilishi mumkin. Tarjimaning bu usulini semantik konvergeniya deb atash mumkin, bunda tarjimada dinamik ekvivalentlikka erishiladi.

3) Terminlarni tarjima qilish jarayonida ekvivalent va semantik konvergensiyani izlashda yangi leksik birliklar yaratilmaydi, balki tilda ilgari mavjud bo'lganlaridan foydalaniladi. Ushbu tarjimadan foydalanish yangi so'z yoki iboralarning shakllanishiga olib keladi. Bu jarayon kalkalash deb ataladi va uning ikki turi mavjud:

a) agar tarjima qilingan leksik birlikning tuzilishi har ikki tilda mos kelsa, biz semantik kalka bilan ishlaymiz. Asl tildagi va tarjima tildagi iboralar tuzilishi yaqin yoki bir xil bo'lganda semantik kalka usulini qo'llash mumkin (direct digital control – to'g'ridan to'g'ri raqamli qurilma).

b) agar murakkab leksik birlikning tuzilishi tarjima paytida ushbu birlik bilan birga o'zlashtirilsa, biz strukturaviy kalka bilan yoki kalkaning o'zi bilan ish olib boramiz. Bunda, tarjima qilingan tilda so'z yoki iboraning yangi, uning uchun begona modeli (gearbox – uzatish qutisi) paydo bo'ladi.

4) Tarjima jarayonida o'zining barcha mazmuni va shakliy xususiyatlariga (semantikasi, so'z tuzilishi, tovush tarkibi va imlosi) ega bo'lgan leksik birlik asl tildan tarjima tilga o'tganda, biz o'zlashtirish bilan shug'ullanamiz. Atamalar sohasida o'zlashtirib olish muammosiga keng ko'lamli adabiyotlar bag'ishlangan.

5) Ba'zi hollarda atama tavsiflovchi konstruksiya bilan tarjima qilinishi kerak. Ushbu tarjima usuli ma'lum bir mamlakatning voqeiklarini aks ettiruvchi ekvivalent bo'lmagan atamalar uchun qo'llaniladi (overhaul period – dvigatel to'siqlari orasidagi interval) [4].

4) Qisqartmalar va abbreviaturalar tarjimasini.

Misol uchun, A/C - havoni sovutish tizimi; EGR - chiqindi gazning qayta aylanishi; NVH - shovqin, tebranish, harakatning notekisligi; Rpm - daqiqada aylanishlar soni; HFC-134a - freon 134a.

Shuningdek turli mualliflarda atamalarining tasnifi farq qiladi. Tadqiqotda V.M. Leychik tomonidan taqdim etilgan

ADABIYOTLAR

1. Ermetova J., Xojayev O. "Avtomobilsozlikka oid atamamalarining o'zbekcha-inglizcha va inglizcha-o'zbekcha izohli lug'ati. – T.: Fan nashriyoti, 168 b.
2. Кондратьева Наталья Владимировна, Эрметова Жамила Исмаиловна, Рузметова Озода Алимовна Дифференциальные признаки математических терминов в удмуртском языке (в сопоставлении с узбекским языком) // Вестник угроведения. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/differentsialnye-priznaki-matematicheskikh-terminov-v-udmurtskom-yazyke-v-sopostavlenii-s-uzbekskim-yazykom>
3. Бархударов, Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.
4. Эрметова Жамила Исмаиловна, Матякубова Нигина Машарибовна Деривационный анализ терминов компьютерной лингвистики // Бюллетень науки и практики. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/derivatsionnyy-analiz-terminov-kompyuternoy-lingvistiki>
5. Глушко, М.М. Функциональный стиль общественного языка и методы его исследования. – М.: 1974.
6. Гринев, С.В. Введение в терминоведение. – М.: Московский лицей, 1993. – 309 с.
7. Лейчик, В.М., Шелов, С.Д. Лингвистические проблемы терминологии и научно-технический перевод. – М., 1990. – 62 с.
8. Позднышева, И.Н. Сопоставительный анализ автомобильных терминосистем в английском, французском и русском языках: автореф. дис. ... канд. философ. наук / МПГУ. – М.: МПГУ, 2007. – 23 с.
9. Реформатский, А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М., 1961. – С. 49–51.

tasnifdan foydalaniladi. Terminlar bir so'zli (bir komponentli) va ko'p so'zli (ko'p komponentli) turlarga bo'linadi. O'z navbatida, bir so'zli atamalar bo'linadi:

a) oddiy yoki hosila bo'lmagan (bir ildizli): wheel – g'ildirak, fuel – yoqilg'i, clutch – ulanish va ajratish uchun mexanizm;

b) bir o'zakli so'z va affikslardan yasalgan hosilalar: ventilation – ventilyatsiya tizimi, heater – isitgich, cylinder – tsilindr;

v) kamida ikkita ildizga ega murakkab: crankshaft – krank mili, gearbox – uzatish qutisi, avtomobile – avtomobil.

Ko'p so'zli (ko'p komponentli yoki qo'shma) atamalar bo'linadi:

a) atributiv va ayrim qarindosh (asosan ergash gap) komponentlar bir-biri bilan, shuningdek, aniqlangan komponent bilan birikkan va terminologik iboralarni hosil qiluvchi qo'shnilik atamalar: steel body – po'lat korpus, power plant – o'rnatish, rear axle – orqa o'q;

b) turli grammatik vositalarga ega atamalar orasida predloglar asosiy rol o'ynaydi: gasket of oil pump – moy nasosining prokladkasi, screen of oil strainer – moy qabul qilgichni to'ri.

– **Xulosa va takliflar.** So'larning qo'llanilish nisbatidan ko'rinadiki, matnda atributiv va ayrim relativ (qarindosh) (asosan ergash gap) komponentlar bir-biri bilan va belgilangan komponent bilan birikib, terminologik iboralarni hosil qiluvchi qo'shnilik ko'p komponentli atamalar ustunlik qiladi.

Shunday qilib, terminlarni tadqiq etishda avtomobil atamalarini tizimini shakllanishi davriy tarixining muhim. Avtomobilsozlik sohasidagi atamalarini tarjima qilishdagi asosiy qiyinchiliklar bartaraf etishda semantik konvergensiya va kalakalash usullari samara beradi.